

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston davlat xoreografiya
akademiyasi rektori
Toxtasimov SH.M.



2023-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI**

60112400 Professional ta’limi (Pedagog xoreograf) ta’lim yo‘nalishi
abituriyentlari uchun

Toshkent – 2023

Mazkur dastur va baholash mezonlari O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2023-yil 2-iyundagi 13-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

“Xoreografiya” kafedrası mudiri
Abduxakimova D.M.

“Xoreografiya” kafedrası, dotsenti
Maxmudova M.M

Taqrizchilar:

“Xoreografiya” kafedrası
professori, O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan artist Muxamedova O‘.N.

“San’at nazariyasi va tarixi”
kafedrası dotsenti, San’atshunoslik
fanlari nomzodi, Tashkenbayev P.I.

ABITURIYENT BILIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

1. Ijrochilik mahorati

(Ijrochilik mahorati “Klassik raqs” va “O‘zbek raqsi” predmetlarini o‘z ichiga oladi)

Ijrochilik mahorati “Klassik raqs” va “O‘zbek raqsi” fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga olgan holda savol-javob orqali 63 (oltmish uch) ballik tizimda baholanadi.

“Klassik raqs” predmeti bo‘yicha

“Klassik raqs” predmeti xoreografiya san‘ati ta‘lim yo‘nalishida asosiy mutaxassislik (raqs) fani hisoblanadi. Shu sababli ijodiy imtihon jarayonida klassik raqs talablari bo‘yicha – qomatni tik tutish, uning egiluvchanligini ta‘minlash, yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etilgan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlari, sakrash, aylanish, oyoqni professional talab bo‘yicha belgilangan meyorlar darajasida baland ko‘tarish kabi ko‘plab xoreografik elementlar o‘z aksini topishi lozim. Ushbu predmet bo‘yicha abituriyent uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

1. Musiqani eshitish va tinglash qobiliyati.
2. Ritmni his qilish.
3. Klassik raqs maktabining asosiy harakatlarini bilishi va ularni bajara olishi kerak.

Maksimal ball – 31 (o‘ttiz bir) ball

25-31 ball	<p>1. Klassik raqs talablariga javob beradi:</p> <p>a) qomatni tik tutish;</p> <p>b) qomatning egiluvchanligini ta‘minlash;</p> <p>v) dastgoh oldida qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini to‘g‘ri bajarish;</p> <p>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni bajarish;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar va aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p>
-----------------------	--

	<p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Klassik raqs terminologiyalarini tushunish va mustaqil mushohada eta olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
18-24 ball	<p>2. Klassik raqs talablarini tushunadi:</p> <p>a) qomatni tik tutish;</p> <p>b) qomatni egiluvchanligini ta’minlash;</p> <p>v) dastgoh oldida bajariladigan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini qisman bajara oladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni qisman biladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar, aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p> <p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Klassik raqs terminologiyasini tushunishi va mustaqil mushohada qila olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
10-17 ball	<p>3. Klassik raqs to‘g‘risida tasavvurga ega:</p> <p>2. Klassik raqs mashqlarni to‘liq o‘zlashtirmagan.</p> <p>3. Klassik raqs terminologiyasi haqida tasavvurga ega.</p>

	<p>4. Klassik raqs to‘g‘risida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olmaydi.</p> <p>5. Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi.</p> <p>6. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi.</p> <p>7. Musiqiy o‘lchovlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega emas..</p>
1-9 ball	<p>4. Klassik raqs fani haqida umuman tushunchalarga ega emas:</p> <p>1. Klassik raqs terminologiyasini tushunmaydi .</p> <p>2. Amaliy mashqlarni bajara olmaydi.</p> <p>3. Klassik raqs harakatlarini umuman bajara olmaydi.</p> <p>4. Musiqiy o‘lchovlarni tushunmaydi.</p>

O‘zbek raqsi predmeti bo‘yicha

Abituriyent uchun asosiy talablar:

1. Musiqani his etish.
2. Ijrochilik mahoratiga ega bo‘lish.
3. O‘zbek milliy raqs maktablarining harakatlari ijrosini bilish va ular haqida tushunchaga ega bo‘lish kerak.

Maksimal ball – 32 (o‘ttiz ikki) ball

25-32 ball	<p>1.O‘zbek milliy raqs talablariga javob beradi:</p> <p>1.O‘zbek milliy raqs maktablarini bir-biridan farqini yaxshi biladi va harakatlarini to‘g‘ri bajaradi.</p> <p>2. O‘rganilayotgan harakatlarning nomlanishini biladi va mustaqil bajara oladi.</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshadi.</p> <p>4. Amaliy mashqlarni to‘g‘ri bajaradi.</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlay oladi.</p>
	<p>2.O‘zbek milliy raqsini tushunadi:</p> <p>1.O‘zbek milliy raqs maktablari haqida tushunchaga ega va harakatlarini bajaradi.</p>

18-24 ball	2. Harakatlar nomlanishini tushunadi va bajara oladi. 3. Musiqiy o‘lchovlar haqida bilim va tushunchaga ega. 4. Amaliy mashqlarni tushunadi va bajara oladi. 5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay oladi.
10-17 ball	<p style="text-align: center;">3.O‘zbek milliy raqslari to‘g‘risida tasavvurga ega:</p> 1.O‘zbek milliy raqs maktablari haqida tasavvurga ega. 2. O‘rganilayotgan harakatlar terminologiyasi haqida mustaqil mushohada qila olmaydi. 3. Musiqiy o‘lchovlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega emas. 4.Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi. 5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi.
1-9 ball	<p style="text-align: center;">4.O‘zbek milliy raqslari to‘g‘risida tushunchalarga ega emas:</p> 1.O‘zbek milliy raqs maktablari haqida tasavvurga ega emas. 2. O‘rganilayotgan harakatlar terminologiyasi mazmun va mohiyatini umuman tushunmaydi. 3. Amaliy mashqlarni to‘g‘ri bajara olmaydi.

2. Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi

Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixidan biletlar asosida nazariy, amaliy bilimlarni va pedagogik qobiliyatini aniqlash uchun suhbat o‘tkaziladi. Abituriyentlardan xoreografiya san’atiga, uning tarixi va elementlariga oid birlamchi (dastlabki) tushunchalarni bilishlari talab etiladi.

Shu bilan birgalikda abituriyent bilet asosida tanlangan musiqaga raqsni ijro (improvizatsiya) etib berishi lozim. Suhbatlashish jarayonida abituriyentning umumiy ma’naviy, estetik fikrlash, o‘zbek va jahon san’at turlariga oid bo‘lgan manbalarni va xoreografiya san’atiga o‘zining hissasini qo‘shgan ijodkorlarni qay darajada bilishi aniqlanadi.

**Abituriyent uchun asosiy talablar:
Maksimal ball- 93 (to‘qson uch) ball**

80-93 ball	<p>Xoreografiya san’at haqida biladi.</p> <p>Bajarilgan amaliy klassik raqs harakatlarini terminologiyasini, mazmuni va mohiyatini biladi. Harakatlarni musiqaning xarakteriga moslab to‘g‘ri bajara oladi va tushuntirish qobiliyatiga ega. Pedagogik va repetitorlik qobiliyatlariga ega. Halq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega.</p> <p>Musiqaning janrlarini tushunadi va farqlay oladi. Ijrochilik va improvizatsiya mahoratiga ega. Klassik raqs kombinatsiya tuzish uslubi haqida tushunchaga ega.</p> <p>Umumiy ma’naviy, estetik fikrlash qobiliyatiga ega, san’at turlariga oid bo‘lgan manbalarni va jahon xoreografiya san’atining rivojiga hissasini qo‘shgan ijodkorlar haqida tushunchasi mavjud.</p>
50 - 79 ball	<p>Xoreografiya san’ati haqida tushunadi.</p> <p>Bajarilgan amaliy klassik raqs harakatlarini terminologiyasini, mazmunini tushunadi. Harakatlarni musiqaga moslab bajara oladi. Pedagogik va repetitorlik qobiliyatlarga qisman ega. Halq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega.</p> <p>Musiqaning janrlarini farqlay oladi. Ijrochilik va improvizatsiyani tushunadi. Raqs kombinatsiyalarini tuzish uslublari haqida tushunchaga ega.</p> <p>Umumiy ma’naviy, estetik fikrlash, san’at turlariga oid bo‘lgan manbalarni va xoreografiya san’atiga o‘zining hissasini qo‘shgan ijodkorlar haqida zarur bilimlarga ega.</p>

<p>20-49 ball</p>	<p align="center">Xoreografik san’ati haqida tushunchaga ega.</p> <p>Bajarilgan amaliy klassik raqs harakatlarining terminologiyasini, mazmuni va mohiyatini tushunadi. Harakatlarni musiqaga moslab ritmik to‘g‘ri ijro eta oladi. Pedagogik va repetitorlik qobiliyatlariga qisman ega. Halq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega. Musiqa haqida tushunchaga ega. Klassik raqs harakatlarini terminologiyasi haqida tushunchaga ega. Harakatlarni musiqaga moslab qisman bajara oladi. Pedagogik va repetitorlik qobiliyatlariga qisman ega. Halq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida umumiy tushunchaga ega. Umumiy, ma’naviy, estetik fikrlash, san’at turlariga oid bo‘lgan manbalarni va xoreografiya san’ati rivojiga o‘zining hissasini qo‘shgan ijodkorlar haqida to‘liq ma’lumotga ega emas.</p>
<p>1-19 ball</p>	<p align="center">Xoreografik san’ati haqida tushunchaga ega emas.</p> <p>Klassik raqs harakatlarini terminologiyasini tushunmaydi. Pedagogik va repetitorlik qobiliyatlariga ega emas. Halq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega emas.</p>

3. Ijodiy imtihonda abituriyentlar bilimni baholash

1. Ijrochilik mahorati (“Klassik raqs” va “O‘zbek raqsi” predmetlari)

bo‘yicha maksimal - 63 (oltmish uch) ball.

2. Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi bo‘yicha maksimal -

93 (to‘qson uch) ball.

Jami maksimal - 156 (bir yuz ellik olti) ball.

4. Kasbiy(ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60112400 Professional ta’lim (Pedagog xoreograf) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ijodiy imtihon topshiradilar. Ijodiy imtihon “Ijrochilik mahorati” (Ijrochilik mahorati “Klassik raqs” va “O‘zbek raqsi” o‘z ichiga oladi) hamda “Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi” dan amaliy va nazariy shaklda o‘tkaziladi. Abituriyentlar ijodiy imtihonda o‘zining ijro mahorati va qobiliyatini ko‘rsatib berishi lozim.

Abituriyentlarning amaliy shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkaziladigan binoga kirishda abituriyent kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo‘lsa, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini guruhdan tashqariga chiqarsa, mazkur holatlarda abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va fan bo‘yicha imtihon komissiya raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuziladi kasbiy (ijodiy) imtihondan chetlashtiriladi.

5. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha akademiya apellyatsiya komissiyasiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab, 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Abituriyent tomonidan yozilgan murojaat, uning o‘ziga tegishli to‘plangan ballar bo‘yicha norozilik bo‘lgan holatda ariza qabul qilinadi. Boshqa abituriyentlarga tegishli bo‘lgan masalalar yuzasidan yozilgan shikoyat - arizalari qabul qilinmaydi.